

## **2-TIP QANDLI DIABETI MAVJUD AYOLLARDAGI KLIMAKTERIK SINDROM KECHISHINING O'ZIGA XOSLIGI**

*Muallif: Xurramiy Hulkar Rustam qizi*

*Alfraganus universiteti Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi*

*E-mail: xurramiyhulkar@gmail.com*

*Tel: +998970014020*

**Tadqiqot maqsadi.** 2-tip qandli diabetli ayollarda klimakterik sindrom kechishining o'ziga xosligini o'rganish.

**Materiallar va usullar.** Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-klinikasi Endokrinologiya bo'limi va Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi 2-son Ichki Kasalliklar kafedrasida 45 yoshdan 55 yoshgacha (o'rtacha yoshi  $45 \pm 2.3$  yosh) bo'lgan klimakterik sindrom simptomlari mavjud 20 ta ayol kuzatuvga olindi. Ulardan 10tasi-anamnezidan ko'p yillardan beri qandli diabeti mavjud ayollar va 10tasi- nazorat guruhi sifatida qandli diabet mavjud bo'lmagan ayollar. Bemorlarda laborator tekshiruvlardan-glikirlangan gemoglobin, och qoringa qondagi qand miqdori; gormon analizlardan -FSG, LG, estradiol, progesteron; instrumental tekshiruvlardan - jigar UTTsi tekshiruvi hamda klimakterik sindrom og'irlik darajasini aniqlash bo'yicha Kupperman shkalasiga asoslangan so'rovnoma o'tqizildi. Shkalaga ko'ra:

0-11 ball - klimakterik sindrom belgilari mavjud emas

12-34 ball - yengil daraja

35-58ball- o'rta og'ir daraja

59 va undan yuqori ball- og'ir daraja

**Tadqiqot natijalari** Qandli diabetli ayollarda - och qoringa qonda qand miqdori  $9.2 \pm 0.3$ mmol/l, glikirlangan gemoglobin  $8.6 \pm 0.2\%$ , FSG-  $142 \pm 0.6$ ME/l, LG  $50.6 \pm 0.7$ ME/l, progesteron  $0.6 \pm 0.1$ ED, esteradiol  $0.15 \pm 0.05$  nmol/l ko'rsatkichga ega. Hamda qandli diabeti mavjud ayollar jigar UTTsida jigar noalkagol yog'li gepatozi borligi aniqlandi. Qandli diabet mavjud bo'lmagan bemorlarda esa FSG  $79.1 \pm 1.5$ ME/l, LG  $40.1 \pm 0.9$ ME/l, progesteron  $0.77 \pm 0.7$ ED, esteradiol  $0.21 \pm 0.04$ nmol/l. Kupperman shkalasi so'rovnomasiga asoslanib, klimakterik sindrom og'irlik darajasi bo'yicha bemorlarni 3guruhga: yengil, o'rta og'ir va og'ir darajadagi klimakterik sindromli ayollarga ajratildi. Shulardan og'ir kechishi 4ta bemorda(20%)- 3ta qandli diabet, 1ta qandli diabeti mavjud bo'lmagan, o'rta og'ir kechishi 11ta bemorda (55%)- 6ta qandli diabetli, 5ta qandli diabeti mavjud bo'lmagan, yengil kechishi 5ta bemorda (25%)- 1ta qandli diabetli, 4ta qandli diabeti mavjud bo'lmagan bemorlarda aniqlandi.

**Xulosa.** Kuzatuv va tahlillarga ko'ra klimakterik sindrom qandli diabeti mavjud bemorlarda qandli diabeti mavjud bo'lmagan bemorlarga nisbatan uzoq va og'ir kechadi. Bunga yuqoridagi ko'rsatkichlarga asoslanib, qondagi qand miqdori uzoq vaqt davomida yuqori bo'lishi va uning organ va organlar sistemasiga ko'rsatgan salbiy ta'siri sabab bo'ladi.